

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Shamsiyev Sherzod Istamovich

XOR VA XORSHUNOSLIK

*Respublika oliy o‘quv yurtlari bakalavriatining 5111100 —
“Musiqqa ta‘limi” yo‘nalishi talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma*



**“KAMOLOT NASHRIYOTI”
BUXORO – 2022**

Shamsiyev Sherzod Istamovich

Ushbu o'quv qo'llanma 5111100-musiqa ta'limi sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, "Xor va xorshunoslik" fanining nazariy va amaliyotdagi xor ijrochiligi va uning tahlili xususidagi bilimlar o'rganiladi hamda usuliy sharhlar asosida ijrochilik dasturini kengaytirish uchun bir qator yangi talqindagi musiqiy asarlar DTS ga asoslangan holda keltirilgan.

Mas'ul muharrir:

Olimxo'ja Karimov, BuxDU, San'atshunoslik fakulteti, "Musiqa ta'limi" kafedrası dotsenti.

Taqrizchilar:

Said Bolta-Zoda Saidiy, NavDPI, "Musiqa ta'limi" kafedrası professori, s.f.n. O'zbekiston Kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi, kompozitor Xalqaro "Antiquye World" ilmiy Akademiyasi akademigi

Sanoqul Do'stov, BuxDU, San'atshunoslik fakulteti "Musiqa ta'limi" kafedrası professori, p.f.n.

Этот учебник предназначен для студентов, получающих 5111100 музыкальное образование и в нем изучаются практические и теоретические знания по предмету хор и хороводство. А также приведены ряд музыкальных произведений в новой обработке для расширения исполнительской программы на основе методологических обзоров, которые соответствуют ГОСу.

ISBN: 978-9943-8093*-* **Kamolot nashriyoti tomonidan ko'rib chiqilgan.**
Buyurtma soni 38.

Muharrir:	E. Eshov
Tex.muharrir:	R. Tolibjonov
Musahhih:	M.Shodiyeva
Badiiy rahbar:	M.Sattorov

Nashriyot litsenziyasi № 022853. 08.03.2022.

Original maketdan bosishga ruxsat etildi: 06.05.2022. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. "Times New Roman" garniture 1/16.

Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog'ozi.

Bosma tabog'i 10. Adadi 20. Buyurtma №38.

"BUXORO DETERMINANTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Buxoro shahar Namozgoh ko'chasi 24 uy

Tel.: + 998 98 778 47 27

Главный редактор:

Олимхуджа Каримов, доцент кафедры музыкального образования Бухарского государственного университета, факультета искусствоведения

Рецензенты:

Саид Болта-Зода Саидий. Нав.Г.П.И. кандидат Искусствоведение, профессор кафедры “Музыкальное образование”. Член Союза композиторов Узбекистана академик Международной академии наук “Antique World”

Санокул Дустов, к.п.н. профессор кафедры “Музыкального образования” факультета искусствоведения Бухарского государственного университета

This textbook is intended for students majoring in music education 5111100. It explores the theoretical and practical knowledge of choral performance in choral and choral studies and its analysis, as well as a number of new interpretations of music to expand the performance program based on methodological reviews. Based on DTS.

Chief Editor:

Olimkhudzha Karimov, assistant professor, Department of Music Education, Bukhara State University, Faculty of Art History.

Reviewers:

Said Bolta-Zoda Saidiy. Navai Pedagogical Institute, Candidate of Arts, Professor of the Department of “Music Education”. Member of the Union of Composers of Uzbekistan academician of the International Academy of Sciences “Antique World”

Sanokul Dustov, Bukhara State University, Associate Professor of the Department of Music Education of the Faculty of Art History, Ph.D.

Annotatsiya

“Xor va xorshunoslik” fani talabalarining o‘quv jarayonida olgan bilimlarini –har tomonlama rivojlantirish, tahlil qilish, xor bo‘lib kuylash jarayonida jamoa ijrochiligi bo‘yicha talabalarining malakalarini shakllantirish va uni boshqarish texnologiyasi bo‘yicha mukammal bilim berish hamda dirijyorlik sirlarini qo‘llab, badiiy-ijro uslublaridan foydalanish va ijrochilik mahoratini o‘stirishdan iborat.

Аннотация

Предмет “Хор и хороведение” - это приобретение студентами знаний в учебном процессе - навыков анализа хоровых произведений, звучания исполнения в хоре, формирование у учащихся навыков хорового исполнения, умения петь в группе и управлять ею, а также используя секреты дирижирования, положительно влияет на использование художественно-исполнительских приемов и развитие исполнительских навыков.

Annotation

The subject “Choir and Choral Studies” is the acquisition of knowledge by students in the learning process - the skills of analyzing choral works, the sound of performance in the choir, the formation of students' skills in choral performance, the ability to sing in a group and control it and using the secrets of conducting and conducting, has a positive effect on the use of artistic and performance techniques and the development of performance skills.

KIRISH

Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyaning ko‘plab omillari qatorida musiqa alohida o‘rin tutadi. Musiqa o‘zining betakror tabiati bilan yoshlarning ma‘naviy dunyosiga katta ta‘sir etish kuchiga ega. Zero kuy va ohang ta‘sirida kishida hissiyot olamining o‘sishi, idrok va tafakkurning shakllanishi, ezgulikka intilish kurtaklarini barg yozishi, go‘zallikni sevish, ona tabiatni asrash, jonajon Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagining tobora ortib borishi bugunda hech birimiz uchun sir emas. Donishmand xalqimiz azaldan musiqa va qo‘shiqni o‘z ijtimoiy va madaniy hayotlarining muhim bo‘lagi deb bilgan. Oilada farzandni qo‘shiq aytishga, soz chalishga o‘rgatish ota-onalarning orzusi sanalgan, shu niyat bilan xonadonda biron cholg‘u soz saqlanishi odat qilingan. Kuy va ohangni bola qalbiga tez yo‘l topa olishi, ruhiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi, xulq-odobi va yaxshi fazilatlarni shakllanib borishida katta ta‘sir kuchiga ega bo‘lishi chuqur anglab yetilgan.¹

Xor ijrochiligi hozirgi kunda keng tarqalgan asl xalq san‘ati turlaridan biridir. Jamoa ijrochiligi insonlarda chuqur estetik zavq uyg‘otibgina qolmay, ularni jipslashtiradi, jamoa bo‘lib birlashishga olib keladi hamda ma‘naviy saviyasini, badiiy didini o‘stirishga yordam beradi. U insonning eng yaxshi his-tuyg‘ularini uyg‘otib, hayajonlantirish, qiziqtirish xususiyatiga ega. Shu sababdan xor ishtirokchilari bilan bir qatorda tinglovchilarning ham badiiy-g‘oyaviy tarbiyalanishidagi roli juda katta.²

Xor sinfi darsi jarayonida talabada vokal madaniyati ko‘nikmasi, mutaxassislik bilimlari shakllanib boradi. Xor va xorshunoslik fani talabani xor san‘atiga yanada yaqinlashtiradi. Xor o‘qituvchisi va dirijyor tomonidan xor asarlarini yaxshi kuylash, shu bilan birga xor partitura (partiyalarning tembr bo‘yog‘i, unisonlar, xor rechitativlari, vokal polifonik dinamikalari va hokazo) vositalari orqali singdirilib boriladi. Amaliy mashg‘ulotning asosiy maqsadi - talabaga haqiqiy “musiqiy asbob” bilan ishlash jarayonini tashkil qilib berish. Bu vaqtda har bir talabada qo‘shiqchilik, xormeysterlik, xoming rahbari kabi ijodiy faollik rivojlanib boradi. Shu orqali Xor va xorshunoslik fani bilimli musiqiy ijrochilarni tarbiyalab beradi. Masalan dirijyor - o‘zida

¹ Q.Mamirov. Cholg‘uchilar ansambli, Oquv qo‘llanma. Toshkent-2002y. 3b.

² N.Shafiyeva “Xorshunoslik”, Oquv qo‘llanma. Toshkent-1987y. 3b.

tashkilotchilik, rejissyorlik, psixologik va boshqa musiqiy bilimlarni bilishi bilan ajralib turadi.³

Xalq ijrochiligi san'atida aralash (erkaklar va ayollar) xorlar formasi deyarli bo'lmasa-da, alohida erkaklar, ayollar va bolalar tomonidan qo'shiq aytish an'analari bo'lgan. Masalan, turli diniy marosimlarda, mavsumiy sayillarda, ramazon oyida bolalarning qo'shiq aytishi yoki kattalarning zikr tushishi, marsiya qo'shiqlarini aytish ham jamoaviy ijrosining bir turidir. Shuningdek, bolalar tomonidan "Boychechak", "Laylak ketdi", "Oftob chiqdi" kabi dunyoviy mazmundagi xalq qo'shiqlari aytilganda ham jamoaviy (xor) ijro formasini ko'rish mumkin.⁴

Xor sinfining ishida nazariy bilimlar va amaliy kuylash ko'nikmalarini doimiy qo'llash orqali talabalarning vokal texnikasi asoslarini egallash jarayoni jadalroq kechadi, bu esa o'quv xoridagi xor jarangining barcha uch unsuriga (soz, ansambl, nyuanslarga) erishishni yengillashtiradi va osonlashtiradi. Bundan tashqari, yagona vokal texnikasi talaffuzning zarur sifati ustida, ayniqsa turli sur'atda ijro etiladigan rehitativlardagi matn talaffuzi usullari ustida birmuncha muvaffaqiyatli ishlash imkonini beradi.⁵

Ushbu o'quv qo'llanma musiqa ta'limi yo'nalishida faoliyat olib borayotgan barcha universitet va institut talabalari hamda ixtisoslashgan san'at maktablari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan havaskorlik xor to'garaklari ham foydalanishlari mumkin.

³ L.Djumayeva, N.Sharafiyeva. "Xor sinfi va kamer xor". O'quv qo'llanma. Toshkent-2017y. 3b.

⁴ Sh.Ro'ziyev "Xorshunoslik" O'quv - metodik qo'llanma. Toshkent-1987y. 17b.

⁵ L.Djumayeva, N.Sharafiyeva. "Xor sinfi va kamer xor". O'quv qo'llanma. Toshkent-2017y. 7b.

ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

Xor ijrochiligida uyg'onish davri

Reja:

- 1.Xor madaniyatining rivojlanishi**
- 2.Xor san'atining ahamiyati va roli**
- 3.G'arb mamlakatlarida xor ijrochiligi**
- 4.Rossiyada xor madaniyatining rivojlanishi**

Xor madaniyatining rivojlanishi

Qadim zamonlardan beri xalqlar orzu-umidlari, his-tuyo'ularini qo'shiq aytish, pantomima (badan harakati) qilish kabi vositalar bilan ifodalab kelganlar. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytish, xalqlarni butun turmush hayoti bilan boo'liq bo'lgan, an'anaviy marosim qo'shiqlari xor bo'lib ijro etilgan. G'arb davlatlarida xalq qo'shiqlari bilan birgalikda cherkovda aytiladigan professional xor ijrochiligi paydo bo'lgan. Qadimgi cherkov qo'shiqlari unison (yoki oktava) bo'lgan, ular –Grigoriy xoral deyilgan.

Uyg'onish davrida xor san'atida katta o'zgarish - ko'p ovozli xor ijrochiligi paydo bo'ldi. Xor san'atining yanada chuqurroq ravnaq topishiga akapella ijrosida kuylashning paydo bo'lishi asos bo'ldi. XV-XVI asrlarda yashab o'z ijodida ko'p ovozli asarlar yaratib kelgan - J.Palestrina, O.Lasso, K.Janeken kabi polifonist-kompozitorlar o'z hissalarini qo'shdilar. Davrlar o'tishi bilan madaniyatlar yaqinlashuvi asrlardan-asrlarga o'tib, bir-biriga ta'sir ko'rsata boshlagan. Xususan, O'zbekiston madaniyatiga g'arb mamlakatlari, ayniqsa, Rossiyadagi madaniy o'zgarishlar bevosita singib kelavergan. Buni inkor etib bo'lmaydi, shu sababli mazkur madaniyatlar haqida ham ma'lum bir tushunchalarga ega bo'lib olishimiz darkor.⁶

X asrda ikki ovozli qo'shiqlar paydo bo'lgan. Uyg'onish davrida ko'p ovozli xor ijrochiligi rivojlangan. XV-XVI asrlarda ijod qilgan bastakorlar- bu Dj Palastrina, O.Lasso, Depre, Joneken. Professional xor cherkovdan tashqari shoh, knyazlar saroylarida keng tarqalgan. O'z ijodi bilan xor san'atini yuqori poo'onalarga ko'targan bastakorlar- Bax, Gendel, Betxoven, Glyuk, Gaydn, Motsart, Verdi, Bize; romanlardan Shubert, Shuman, Mendelson; rus bastakorlaridan Glinka, Rimskiy-Korsakov, Musorgskiy, Chaykovskiy, Borodin Kyui, Taneev;

⁶ G.Mansurova "Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubi" O'quv qo'llanma. Toshkent-2008y. 4b.

o'zbek bastakorlaridan Burxonov, Yudakov, Ashrafiy, Umidjonov, Akbarov, Yormatov, Mansurov.

Xor san'atining ahamiyati va roli

Musiqaning janrlari ichida xalqqa tushunarli va eng yaqini bo'lgani bu xor san'atidir, chunki u odamlarning kundalik hayoti bilan bo'liqdir. Xorda adabiy va musiqiy ijodiyot o'zaro uyoqunlashib yaxlit badiiy obraz yaratadi. Xor xalqlar milliy musiqaning madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

O'tmishda bizning respublikamiz xor ijrochiligiga ega bo'lmagan, hozir esa qator shahar va qishloqlarda akademik va xalq (havaskorlik va professional) xor jamoalari ko'plab mavjud. Professional va havaskorlik xorlari badiiy va texnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib, professional xor havaskorlik xoriga saviyasini oshirishiga yordam bersa, o'z navbatida havaskorlik xor professional jamoasiga xushovoz iqtidorli yoshlarni yetishtirib beradi. San'at bayramlarida professional va havaskorlik xorlar birga ishtirok etishadi. Respublikamizda madaniyat va san'at oliy o'quv yurti, konservatoriya, pedagogika universiteti qoshidagi San'atshunoslik fakul'teti, musiqaning ta'limi kafedrasini, madaniyat kollejlari va musiqaning kollejlari mavjud.

Xor san'ati - musiqaning san'atining janrlari orasida o'zining ommaviyligi va demokratik xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda u keng tarqalgan asl xalq san'ati turiga aylangan. Bu san'at turi insonlarni musiqiy tarbiyalashda, estetik qarashlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlarning bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan ma'naviy ongi, didiga, bir yagona g'oya, yagona ijroni maqsad qilib, so'z va musiqadagi tuyg'uni jamoa bo'lib ijro etish, ularni yanada jipslashtiradi. Bu san'at doimo xalq qo'shiqchilik ijodiyoti bilan bog'liq bo'lib, turli millatlar musiqaning madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Xor san'ati o'zining qadimiy musiqaning madaniyatini ifodalashda uzoq tarixga yondoshadi. Asrlar davomida cherkov kuylari professional xor san'atida asosiy ijrochilik hisoblangan. Qadimiy cherkov kuylari, xuddi qadimiy grek kuylariga o'xshab paydo bo'lishiga qadar ovozlarning pastki va yuqori ovozlari rivojlana bordi.

G'arb mamlakatlarida xor ijrochiligi. Ma'lum bir davrdan so'ng xor san'atida yana bir o'zgarish paydo bo'lib, yirik asarlar - kantata, oratoriyalar mualliflari sifatida - I.S.Bax, G.Gendel, K.Glyuk ijodi, keyinchalik Meyerber, J.Verdi, shu bilan birga F.Shubert,

B.Mendelson, R.Shuman kabi romantik kompozitorlar ijodida kamer xor musiqasi rivoj topdi. Shu davrda qo‘shiq sevadiganlar xor jamoalari “lidertafel” (nemischa so‘z bo‘lib, “yetakchi qo‘shiqchi” ma’nosini anglatadi. Germaniya, Avstriya va Shveysariya davlatlarida keng rivojlangan) va “orfeon” (fransuzcha “xor sevuvchilar jamoasi” 1818-yilda Parijda G.Vilemom rahbarligida) paydo bo‘lgan. Xor san’atining cherkov musiqa san’atidan asta-sekin tashqariga chiqishi, opera teatrlarining shakllanishi, XIX asrdagi milliy kompozitorlik maktabini xalq omma musiqasiga chambarchas bog‘lanib ketishi Rossiya, Boltiq bo‘yi davlatlari - Chexiya, Bolgariya, Vengriya va boshqa davlatlarda namoyon bo‘lgan. Keyinchalik AQSh, Lotin Amerikasi, Yaponiya davlatlarida ham bu jarayon davom ettirilgan.⁷

Leypsigda I.S.Bax o‘zining eng yaxshi vokal-cholg‘u asarlari: ko‘pgina kantatalar (Bax tomonidan jami 250 ga yaqin kantatalar yozilgan), “Ioann bo‘yicha ehtiroslar”, “Matfey bo‘yicha ehtiroslar” (1729), “Motam odasi” (1727), minor rnessasi (1738)ni yaratdi. Ioann va “Matfey bo‘yicha ehtiroslar” yoki “Passionlar” - bu Iso payg‘ambarning chekqan azoblari va o‘limi to‘g‘risidagi Injil kitobi bo‘yicha Ioann va Matfey yozgan qissasidir. Messa mazmuni bo‘yicha “Ehtiroslar”ga yaqin turadi. Avvallari messa ham, “Ehtiroslar” ham katolik cherkovida xor tomonidan ijro etilar (ishtirokidagi qo‘shiq kuylash) edi.

Rossiyada xor ijrochiligi. Ko‘p asrlardan buyon rus xor san’ati o‘zining izchilligi bilan ajralib turadi. Rus xor ijrochiligi va ijodiyoti xalq ijrochiligi va cherkov ijrochiligi yo‘nalishida rivojlanib, bir-biriga o‘zaro bog‘langan yo‘nalishlar tashkil etgan.

Birinchi bor jo‘rsiz xor asarlari XIX asrning 30-40 yillarida dunyoga kelgan: A.A.Alyabyev xorlari, A.S.Dargomijskiy “Peterburg serenadalari xor tsikli”. Asl xor asarlari yaratgan, xalq qo‘shiqlarini jo‘rsiz xorga qayta ishlagan bastakorlar: N.A.Rimskiy-Korsokov, M.P.Musorgskiy, M.I.Glinka, A.V.Lyadov, A.S.Arenskiy, S.A.Kyui, E.F.Napravnik, M.M.Ipolit-Ivanov, S.I.Taneev, A.T.Grechaninov, A.D.Kastalskiylardir. Birinchi rus xalq qo‘shiqlarini qayta ishlagan bastakor bu- Boris Ivanovich Fomin.⁸

⁷ G.Mansurova “Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti” O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2008y. 4b.

⁸ D.Xamdamova “Xorshunoslik (Ma‘ruzalar matni)” Namangan-2005 11b.

Bularga qishloq va shahar qo‘shiqlari, qo‘shiqcevarlar xor jamoalari, maktab qo‘shiqsevarlari, professional cherkov va opera xor kapellalari targ‘ibot qilingan. Birinchi bo‘lib XV asrda tashkil qilingan “Хор государьевых певчих дьяков” (Podshohning kuylovchilari xori) keyinchalik Peterburg saroy xonandalari kapellasiga aylantirilgan va XVI asrda yuzaga kelgan “Хор Патриарших певчих дьяков” (Patriarxning kuylovchilari xori), keyinchalik Moskva sinodal xori, deb atalgan. Patriarxning kuylovchilari xori rus professional xorlarining ilk namoyondalari bo‘lib qolishgan. Cherkov ijrochiligi o‘z davrida musiqa qobiliyatiga ega ijrochi va xor rahbarlari (regentlar), XVI-XVII asrlarda esa dvoryanlar, pomeshiklar o‘z qaramog‘ida xor va orkestrlar tashkil etadilar. Bunday jamoalarni “metsenatlar” - san‘at homiylari xori, deb (graf Sheremetyev o‘z kapellasining serqirra va sermazmun ijodi bilan 150 yilga yaqin ijod qilib kelgan jamoalardan; knyaz Yu.Galitsin xorlari va boshqalar) nomlangan. Bu kapellalar o‘z ijro mahoratlari, dasturlari bilan rus xor madaniyatiga juda katta, yuksak hissa qo‘shgan. Ushbu xor jamoalariga krepostnoylar rahbarlik qilib, ular ichidan atoqli xor dirijyorlari - S.Dektaryev, G.Lomakin, A.Arxangelskiylarning yetishib chiqishi misol bo‘la oladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ma‘rifiy yo‘nalishda xor san‘ati ijrochiligi adabiyot va san‘atdagi demokratik harakatlar bilan uyg‘unlashib, ijtimoiy xarakterga ega bo‘la boshladi. Tarixiy davrda Rossiyada ommaviy uyg‘onishlar rus qo‘shiqchiligi xalqning talabiga javob bera oladigan asarlar yaratilishi va yangi rus qo‘shiqchiligi maktabi targ‘ibot etilishiga olib keldi. Bu ayrim jonkuyar insonlar - M.Balakiryev va G.Lomakinning “Bepul musiqa maktablari”, I.Melnikovning “Bepul xor sinflari” kabi professional va havaskorlar xorlari tashkil etilishiga sabab bo‘ldi. XIX asr oxirlarida atoqli xor dirijyori A.Arxangelskiyning professional xori dunyo bo‘ylab tanildi. Xor jamoasining tiniq kuylashi, xor ansamblining mukammallashuvi turli ko‘p ovozli asarlarni yuqori saviyada namoyish etishga olib keldi. Yuqori malakali dirijyor, kompozitor va ustoz A.Arxangelskiy rus xor san‘atini yuksaklarga ko‘tarishga sababchi bo‘lgan ijodkorlardan biri.⁹

Kompozitorlar ijodi xor san‘atining turlanib, janrlar nuqtai nazaridan keng qamrovga ega bo‘lishida muhim o‘rin tutadi. A.Alyabyevning xor uchun yozgan asarlari, A.Dargomijskiyning

⁹ G.Mansurova “Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti” O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2008y. 5b.

“Peterburg serenadalari” so‘zsiz xor bo‘lib ijro etishning ilk namunalari bo‘lib qoldi. P.Chaykovskiy, N.Rimskiy-Korsakov, M.Musorgskiy, S.Kyui, E.Nappravnik, A.Arenskiy, I.Ippolitov-Ivanov, A.Grechaninov, V.Kalinnikov, P.Chesnokov, S.Taneyev kabi kompozitorlar ijodida xor uchun yozilgan a kapella uslubidagi asarlar xor san’atining yangi pog‘onaga ko‘tarilishiga asos bo‘ldi. XX asrda ham Rossiya hududida ko‘plab professional xor jamoalari tuzilib, ular keng konsert-ijrochilik faoliyatini olib borgan. Davlat rus xori, Respublika rus xor kapellasi (keyinchalik A.Yurlov nomi berilgan), Radio va Markaziy televideniye qoshidagi Rus qo‘shiqlari xori, Peterburg kuylovchilari kapellasi kabilar bunga misol bo‘la oladi. Butun dunyoga tanilgan xor dirijyorlari - G.Dmitriyevskiy, K.Ptisa, N.Danilin, A.Sveshnikov, A.Aleksandrov, V.Sokolov, A.Yurlov, A.Yegorov, A.Mixaylov, V.Minin, M.Pyatnitskiylar kabilar mazkur san’at rivojlanishiga o‘z ulushlarini qo‘shdilar. XX asrning ikkinchi yarmida xor san’ati va kompozitorlik ijodiyoti yanada yuksaklarga ko‘tarildi. Bunga S.Prokofyev, D.Shostakovich, V.Shaporin, M.Koval, G.Sviridov, V.Salmanov, A.Lenskiy, V.Shebalin, R.Boyko, R.Shedrin va boshqalarning ijodiy izlanishlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

XX asrda Peterburg xonandalar kapellasi, Moskva, Sinodal xori, opera teatrlari xorlari simfonik kontsertlarda qatnashib, kontata, oratoriyalar ijro qilar va jo‘rsiz asarlar bilan kontsertlar berar edilar. Rus xor madaniyati bir ovozli formalardan boshlab turli xildagi xor janrlari, ijro yo‘nalishlariga keldi. 1917 yildan xor madaniyati yangi yo‘nalish oldi. Cherkov davlatdan ajratildi. Oldingi M.Pyatnitskiy, A.Arhangelskiy kabi xorlar asosida yangi xorlar, shahar va kolxozlarda havaskorlik xor, ashula va raqs ansambllari tuzila boshlandi. Vasilev-Buglay, Lebedev va boshqalar tomonidan patriotik xarakterdagi qo‘shiqlar yaratildi. Bu asarlar unison yoki ikki ovozli havaskorlik xorlariga mo‘ljallangan edi.¹⁰

Birinchi rus qo‘shiqlarini qayta ishlagan bastakor (bu Fomin) XX asrda Peterburg xonandalari kopellasi, Moskva sinodal xori, opera teatrlari xorlari sinfonik konsertlarida qatnashib, kantata, oratoriyalar ijro qilar va jo‘rsiz asarlari bilan konsert berar edilar. Rus xor madaniyati bir ovozli formalardan boshlanib ko‘p ovozli turli xildagi xor janrlari ijro yo‘nalishlariga keldi.

¹⁰ D.Xamdamova “Xorshunoslik (Ma‘ruzalar matni)” Namangan-2005 12b.

1917-yildan keyin xor madaniyati yangi yoʻnalish oldi. Cherkov davlatdan ajratildi. Oldingi Pyatnitskiy, Arxangelʻskiy kabi xorlar asosida yangi professional xorlar, shahar va kolxozlarda havaskorlik xor, ashula va raqs ansambllari tuzila boshlandi. Vasilʻev-Buglay, Lebedov va boshqalar tomonidan potriotik xarakterdagi qoʻshiqlar yaratildi. Rus xor madaniyati bir necha yoʻnalishda rivojlanib kelgan, shahar va xristiyan qoʻshiqchiligi, maʼrifatli qoʻshiq sevuvchilar xorlari, maktab, professional cherkov va nodiniy xorlar, opera, oilaviy boʻlib ijro qilish formasini –artel deyishgan.

Qadimda xor madaniyati ogʻzaki anʻana shaklida rivojlangan va cherkov qoʻshiqchiligi bilan bogʻliq boʻlgan. Ularning qoʻshigʻida xalqning kundalik hayoti aks etar edi. Bu qoʻshiqlar bir ovozli edi. Keyinchalik shu qoʻshiqlar asosida xorshunoslik shakllana boradi. XV-XVI asrda cherkov taʼsiri kuchayadi va cherkovlar xonanda diyaklardan cherkov xor qoʻshiqchiligi uchun oʻqituvchilar, regent (boshliq)lar tayyorlanar edi. Birinchi professional cherkov Kiyev Rusida paydo boʻlgandi. Qadimiy professional Davlat xonanda diyaklar xori (Ivan III. XVI asr) va patriarx xonanda diyaklar xori (XVI asr) faoliyatining ahamiyati kattadir. Shular ichidan xor bastakorlari yetishib chiqdi, jumladan Titov, Kolenda, Demikin, Shaydurov, Mezrinin va boshqalar.

Rossiyada opera xor madaniyati oʻsadi. Glinka, Rimskiy-Korsakov, Musorgskiy, Borodin, Chaykovskiy va boshqa bastakorlar ijodi opera xor janrini boyitdi. XIX asrda graf Sheremetov xor kapellasi (150 yil faoliyat koʻrsatgan) Kadet Korpusi xori, Knyaz Galitsin xorlari mavjud boʻlgan. XIX asrning II yarmida Balakirovning tekin musiqa maktablari, Melnikovning tekin xor sinfi ochilishida va nodiniy xor ijrochiligi faoliyati kuchayib bordi. Professional xalq xorlari tashkil eta boshladi, ular yoddan oʻrganib ijro etishar edi. Yaroslav gubernasidagi Molchanov xori, Arxangelskiy xori, Gorodsov xori, Piyatnitskiy xori, rus xalq xori.

1936-yilda Moskvada oʻtgan xor olimpiadasida koʻpgina professional va havaskorlik xorlari qatnashgan. Qardosh respublikalar ham oʻz xor madaniyatini rivojlantirib opera, kontata, oratoriya, kapella janrlarini rivojlantira bordi. Ulugʻ vatan urishi yillarida professional va havaskorlik jamoalari jangchilarga madaniy xizmat qilishar edi. Urushdan keyin xor madaniyati yana ham rivoj topdi. Tinchlik uchun kurash, xalqlar doʻstligi, mehnat mavzulari ijodiy jamoalar

faoliyatining asosiy mazmuni edi. 1977-yilda ittifoqda 175000 havaskorlik xorlari bo‘lib, ularda 25 mln xonanda qatnashgan edi.

Mavzu yuzasidan savollar:

- 1. G‘arb va Rossiya kompozitorlarining kattalar va bolalar xorlari uchun yozgan asarlarini aytib bering.*
- 2. Sizga nomlari tanish bo‘lgan dirijyorlar va kompozitorlar haqida gapirib bering.*
- 3. Birinchi rus xalq qo‘shiqlarini qayta ishlagan bastakor kim?*

Yevropa davlatlarida xor ijrochiligining paydo bo‘lishi

G‘arbiy Yevropaning xor san‘ati XVII asr boshlarida G‘arbiy Yevropada Uyg‘onish davri gumanizmining inqirozi, insonning dunyodagi o‘rnini qayta yo‘naltirish, falsafada, ilm-fan va san‘at sohasida yangi g‘oyalarning shakllanishi qayd etildi.

- Yevropada burjua munosabatlarining hukmronligini mustahkamlash;
- turli mamlakatlarning ijtimoiy rivojlanishining keskin notekisligi;
- Yevropaning madaniy hayotining milliy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish

mamlakatlar - falsafiy, badiiy, ilmiy, diniy;

- turli davlatlar o‘rtasidagi aloqa sohalarini izchil kengaytirish - mustahkamlash

madaniy aloqalar, axborot almashish, o‘zaro ta’sirlarni faollashtirish;

- davrning estetik tafakkuri nafaqat milliy o‘ziga xos xususiyatlarni, balki barcha Yevropa mamlakatlariga xos umumiy xususiyatlarni ochib beradi.

Hozirgi zamonning jamoatchilik dunyoqarashi keskin farq qiladi oldingi davr: “O‘rtasidagi farq siyosiy va iqtisodiy kuch, qonun kuchi va pul kuchi “shaxsning” xususiy va umumiy, shaxsiy va sinfiy, umuman empirik va mavhum tabaqalanishi mavjud. Yangi turdagi munosabat hukmron bo‘lib qoladi, bu esa “tuzatadi har qanday vaziyatning keskin ichki nomuvofiqligi”. Bo‘lish bu muzlatilgan, o‘zgarmaydigan narsa emas, balki har doim berilgan ilohiy taqdir, lekin dinamik, har xil turlarga ochiq o‘zgarishlar, to‘qnashuvlar va dramalar. Nuqtai nazar o‘zgarishi va qutblanish ularning dunyo haqidagi tasavvurlarini himoya qiladigan yangi badiiy yo‘nalishlar voqelikning badiiy rivojlanishining yangi tamoyillariga o‘tishga olib keldi. Ushbu

tamoyillarga amal qilgan holda san'atning yangi yo'nalishlari, klassizm va barokko bo'lib chiqdi.

Gannover va London. Ingliz milliy madaniyati bilan tanishish.

1710-yilda F.Gendel Gannoverga saroy kapelmeysteri lavozimiga ishga keldi. Gannover gersoglari azaldan chet el - fransuz va ayniqsa, italyan musiqasining shinavandalari sifatida tanilgan edilar. O'z saroylariga ular muntazam ravishda har ikki xalq san'atining taniqli namoyandalarini jalb etishardi. Gannoverdagi opera teatri italyan me'morlari tomonidan qurilgan bo'lib, orkestr va xor gruppasi fransuz va italyan sozandalari va qo'shiqchilaridan tashkil topgan edi. 1689-yildan boshlab italyan kompozitori Agostino Steffani I kapelmeyster bo'lib ishlay boshladi. Gendel Italiyadalik paytda u bilan tanishdi va yaqinlashdi. Aftidan, Gendel Gannoverga taklifni Steffanining yordami va homiyligida olgan. 1711-1716-yillar orasida Gendel goh Gannoverda, goh Italiyada yashadi, bunda ko'proq boy teatr san'atiga ega ingliz poytaxti hammadan ajratilgan nemis doirasiga qaraganda ko'proq o'ziga tortardi.

Gannoverga ko'chib o'tish Gendeldan Italiyada o'zlashtirilgan musiqiy-estetik tamoyillarni o'zgartirishni talab etmadi. Uning ijodiy yo'nalishi bu yerda o'matilgan did va talablarga to'la mos tushar edi. Kompozitorning Londondagi holati ancha murakkabroq bo'ldi, bu yerga u birinchi marta 1710-yilning oxirida keldi. 1711-yil fevralidagi birinchi chiqishning o'zi Gendel nomini mashhur qilib yubordi. Birorta ham opera Gendelning "Rinaldo" 10 operasi bilan raqobatlasha olmasdi. Shu orada Gendel o'zining Angliyadagi holatini yaxshilashga harakat qilardi. 1711-yilda yozilgan "Te Deum" madhiyasi shunday "harakat"lardan biri bo'ldi. Bu asarning ijrosiga erishish uchun (ingliz qonunchiligi bo'yicha chet elliklar musiqasini rasmiy bayramlarda ijro etish ta'qiqlangan edi) uning rauallifi qirolicha Annaning tug'ilgan kuniga maqto'v odasini yozadi. Saroy ahlining bu asami zavq bilan qabul qilishi "Te Deum"ning parlament huzuridagi tantanali marosimdagi ijrosini ta'minladi. Milliy an'analarga qaramay, Gendel ingliz qirollarining rasmiy kompozitoriga aylandi. Gendel Angliyaga kelishi bilan ingliz milliy san'atini, birinchi navbatda Genri Pyorsellning asarlarini qunt bilan o'rgandi. U xalq musiqasining barcha janr turlarini ham e'tibordan chetda qoldirmadi. Romen Rollanning aytishicha, Gendel faqat "ziyoli" musiqani emas,

balki “eng oddiy va eng qadimiy bo‘lgan xalq musiqasi manbalarini” ham o‘rgandi. Gendel turli-tuman, yangi taassurotlarni xotirasida olib qolardi. Kompozitorning o‘zi guvohlik berishicha, London ko‘chalaridagi qichqiriq, shovqin, xitoblar uni eng yaxshi qo‘shiqdami yaratishga ilhomlantirdi.¹¹

Qirolicha Annaning o‘limidan (1714) keyingi yillarda Gendel ingliz amaldorlari huzurida kapelmeyster lavozimida ishladi. Ulaming adabiy-badiiy salonlariga Angliyaning buyuk insonlari - yozuvchi, publitsistlar: Jonatan Svift, Aleksandr Pop, Jon Gey va boshqalar tashrif buyurardilar. Bu tanlangan jamiyat oldida Gendel organ hamda klavesinda o‘zining ijrosi va improvizatsiyasi bilan tez-tez chiqib turardi. Bu yerda artistning tengi yo‘q san‘ati behisob muxlis va shinavandalaming olqishiga sazovor bo‘ldi. Shu vaqtning o‘zida Gendel Angliya xor san‘atini o‘rganishga ko‘p vaqt sarfladi. Natijada o‘n ikkita “antem” deb ataluvchi, xor, yakkaxon va orkestr uchun Bibliya matnlariga, ingliz diniy musiqasi an‘analarida yozilgan ingliz psalmlari paydo bo‘ldi. Antemlardagi xor yozuvi ustidagi ish bo‘lajak mahobatli xor oratoriyalari yaratilishi oldidan o‘ziga xos tayyorgarlik bo‘ldi. Italian kantatalari opera uchun oldindan esqiz rolini o‘ynagani kabi, antemlar ustidagi “laboratoriya tajribalari” oratoriyalarning xor eposlari oldidan o‘ziga xos tayyorgarlik bo‘ldi.

Shu davrda yaratilgan yirik oratorial kompozitsiyalardan biri Broks matniga yozilgan “iztiroblar” edi. Gendelning Londondagi hayotining birinchi o‘n yilligida paydo bo‘lgan asarlarining ko‘pchiligi, dramatik ibtidosining kuchliligi va uning yirik hajm hamda mahobatli uslubdagi kompozitsiyalarga bo‘lgan intilishiga javob beruvchi vositalarni izlash bilan ajralib turadi. Bu intilish ko‘proq xor massivlariga tayanch bo‘lgan antemlarda, keyin “Esfir” oratoriyasida o‘z aksini topdi. Antemlar kabi “Esfir” kompozitorning Chendossk Gersogi (1717-1720) xizmatidagi davrda yozilib, shu yeming o‘zida birinchi marta ijro etildi. “Esfir” bilan deyarli bir vaqtning o‘zida Gendel “Niqoblar” nomli pastoralini yozdi, unda bir vaqtlar “Atsis va Galateya”sida foydalangan syujetga murojaat qildi.¹² Ushbu asarlar va antemlar ustida ishlash

¹¹ O. A. Ibrohimov, G. M. Xudoyev “Musiq tarixi” O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2018y. 60-61b.

¹² O. A. Ibrohimov, G. M. Xudoyev “Musiq tarixi” O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2018y. 61-62b.

Gendelning kompozision va uslubiy ish yoʻnalishi doirasini kengaytirib, boyitardi, uni seriyasi italyan operasining qoliplaridan asta-sekin ozod qilardi. 1720-yil kompozitorning ijodiy hayotida maʼlum chegara vazifasini oʻtadi. Oʻquvchilik yillari tugadi, Germaniya, Italiya, Angliya, Fransiyaning sanʼatkorlari toʻplagan ulkan tajribani oʻzlashtirish ustida qilingan mehnat poyoniga yetdi.

Oʻzining yetuklik davriga Gendel yuksak mahorat, turli reja va gʻoyalarning behisob zahirasi bilan kirib keldi, bu gʻoyalarni u oʻzining kompozitorlik, ijrochilik, tashkilotchilik faoliyatlarida roʻyobga chiqaradi. “Qirol musiqa akademiyasi” opera teatrida “Qashshoqlar operasi”. 1720-yilda Londonda baʼzi aristokratlarning mablagʻlari hisobiga va qirolning yordamida “Qirol musiqa akademiyasi” deb nomlangan opera teatri ochildi. Teatrning musiqa rahbarligi Gendelga topshirildi. Shu vaqtdan boshlab Angliyadagi musiqa sanʼatining holati Gendelni qattiq va shafqatsiz kurashga duchor qildi. Yagona, oʻziga xos, buyuk opera kompozitori Genri Pyorselning oʻlimidan soʻng ingliz operasi tezda inqirozga yuz tuta boshlagan edi. Saroy va aristokratik doiralarning ochiqdan-ochiq qoʻllab-quvvatlashlari sabab Angliyadagi musiqiy hayot italyan kompozitorlari, mohir ijrochilari va xonimlari hukmronligi ostida qoldi. Jamiyatning imtiyozli ustqurmasi olib borayotgan yoʻnalish milliy manfaatlarga zid edi, bu ingliz jamiyatining ilgʻor kuchlari tomonidan turli noroziliklarga sabab boʻldi. Shunday vaziyatda haqiqiy talablardan uzoq boʻlgan begona mazmun va shaklli chet el musiqasini sunʼiy ravishda olib kirish muvaffaqiyatsizlik degani edi.

Gendel tutgan yoʻlning qarama-qarshiligi uning Angliyada omonat ekanligini bildirib qoʻydi. Keng tan olinishi va ijodining jamoatchilik tomonidan ijobiy baholanish imkoniyatini ancha nariga surib ketdi.

Saroy sanʼatkori boʻlgan Gendel oʻsha davrda sevimli va odat tusiga kirgan italyancha uslubda ijod qiluvchi kompozitor sifatida aristokratlarning marhamatidain foydalanar edi. U London jurnallarining birida aytilishicha “zerikishni tarqatuvchi va insofli odamlarni oʻylashdan ozod qiluvchi” musiqani tan oluvchi kishilardan homiylik kutar edi. Gendel shu vaqtning oʻzida, italyan operasining umumiy tamoyillariga amal qilgan holda, unga mavzu jiddiyligini,

saroy ommasining tushunchalaridan ustunlik qiluvchi muhim g'oyalar olib kirar edi.¹³

XVII asrlarda Yevropa san'ati¹⁴

Italiyada barokko san'ati

XVI asr o'rtalariga kelib, Italiyadagi ijtimoiy qarama-qarshiliklar feodal-katolik kuchlarining g'alabasi bilan tugadi. Davlat bo'linib ketgan, iqtisodiy jihatdan tang ahvolda edi. Italiya, Fransiya va Ispaniya kabi kuchli mamlakatlar hujumiga bardosh bera olmadi. Uzoq kurashlardan so'ng Ispaniya g'olib chiqdi. Shu paytdan boshlab (1559-yil), Italiyaya taqdiri Ispaniya bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. XVII asrda Italiya san'atining umumiy xarakteri tarixiy rivojining xususiyatlari bilan monand. Italiyada barokko san'ati paydo bo'lib, taraqqiy eta boshladi. Barokko Italiya san'atidagi yetakchi yo'nalish bo'lsa ham, XVII asrda boshqa oqimlar ham mavjud edi. Undan tashqari, realistik oqim ham taraqqiyparvar va demokratik g'oyalarni, xalq fikrini yorituvchi san'at yo'nalishi sifatida Italiyaning barcha yirik shaharlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. XVII asr Italiya monumental arxitekturasi katolik cherkov va aristokratlarning hamma ehtiyojlariga mos tushadi. Shu paytda asosan ihodalxona va saroylar qurilishi rivojlangan. Bir tomondan monumentallikka, ikkinchi tomondan esa dekorativlikka ahamiyat berilgan bu paytdagi barokko uslubi arxitektunda ham tarqiy etdi.

Barokkoning birinchi arxitektorlari Jakomo dela Porta va Domeniko Fontanlar deb qabul qilingan. Yuqori barokkoning yirik arxitektori va haykaltaroshi Lorenso Bernini 1629-yildan boshlab Modernning o'limidan so'ng Petr sobori qurilishini davom ettiradi. Bernini tomonidan bajarilgan soborning ichki bezaklari Mikelanjelo tomonidan tavsiya qilingan. Berninining eng yirik me'morchilik asari Avlyo Petr ibodatxonasi maydoni hisoblanadi. Me'mor ikkita maydon yaratdi. Ellips shaklidagi ustunlar bilan o'ralgan bu joyga simmetrik joylashgan ikkita favvora o'rnatilgan. XVII asrda arxitekturadagi kabi tasviriy san'atda ham barokko uslubi asosiy ahaniiyatni kasb etdi. XV-XVII asrlarga kelib manerizm oqimiga qarshi yo'nalish rivojlanadi:

¹³ O. A. Ibrohimov, G. M. Xudoyev "Musiq tarixi" O'quv qo'llanma. Toshkent-2018y. 63b.

¹⁴ <https://uz.ecotaf.net/8381-renaissance-music.html>

Bolonye akademizmi va Karavadjizm. Aka-uka Karrachilar ijodi XVI asrdagi soʻngi Rim sanʼatida manerizmdan oddiylik va obrazlarning ulugʻvorligi tomon keskin buriish boʻldi. Karrachilar 1580- yilda Bolonyeda akademiya ochishadi. Bu badiiy taʼlim prinsiplarini tizimga keltirishda keyingi ociligan akademiyalar uchun Yevropa sanʼati katta ahamijatga ega boʻldi.

1595-yili Karrachilar mashhur boʻlgach, kardinal Farieze oʻz saroyini bezash uchun ularni Rimga chaqiradi. Annibale taklifni qabu! qilib butunlay Bolonyeni tashlab ketadi. U Palatso Farneze zallaridan biriga mashhur shift galereyasini yaraiadi va bu asar uning ijodini choʻqqisi boʻlib qoladi. Shiftning kompozitsion tuzilishi Mikelanjeloning Sikstin kapellasiga ishlagan naqshlariga oʻxshab ketadi. Rassom insonlar figurasini va tasviriy asarlarni koʻzni qamashtirarli darajada xuddi jonliday aks ettira olgan. Rimdagi faoliyati davrida Annibale Karrachi tomonidan yaratilgan kartinalar asosan diniy sujetlarga bagʻishlangan. Shakllarning sovuq ishlanishi hissiy tuygʻularga oʻrin qoldirmaydi. Annibalening tasviriy uslubi figuralarni aniq egiluvchar chiziqlar orqali tasvirlashdan iboratdir. “Iso qabri oldidagi tinchlik keltiruvchi ayollar” asari shu xildagi asarlarning eng oʻziga xosidir. Karrachi manzarani “klassik” uslubda tasvirlovchi sanʼatkor boʻlib qoladi.

Mikelanjelo Merizi da Karavadjo (1574-1610) nomi bilan bogʻliq bu oqimning asoschisi yoshligidanoq maishiy janr ustasi sifatida taniladi. Uning “Ud chaluvchi” asari ijodining dastlabki yillaridagi xarakterli ishlaridandir. XVII asrning dastlabki yillarida yaratilgan mashhur “Tobutga solish” asari kompozitsiyasi taʼsirchanligi va obrazlarning hayotiyliги bilan ajralib turadi. Shogirdining egilgan figurasini nihoyatda hayotiy berilgan boʻlib, Iso gavdasini ushlab turibdi. “Bibi Maryamning ulgurishi” asari ham shit xildagi haqqoniy asardir. Bibi Maryamning yotgan gavdasi oldida Iso shogirdlari chuqur qaygʻuda. Asarning janrli xarakteridan rassomning mavzuni anʼanaviy talqin qilishdan voz kechganligi seziladi. Bu narsa cherkov tomonidan rassomga norozilik bildirishga sabab boʻldi.

Lorenzo Bernini (1599-1680) yuqori barokko sanʼatining mashhur meʼmori va haykallaroshi, shu uslubning xarakterli tomonlarini umumlashtira olgan ijodkordir. Marmar va bronzadan asar ishlashda undan oʻtadigani boʻlmagan. U yoshligidanoq oʻziga badiiy yoʻnalish topa olgan, birinchi asarlaridayoq' lining mahoratli

san'atkorchanligi sezilib turardi. 1623-yili "David" haykalini yaratadi. Haykalda Injil qahramonining jismoniy va ruhiy kuch-qudrati jo'sh urgan payti aks ettirilgan. Barokko mahobatli haykaltaroshligi durdonalaridan biri-mashhur "Avliyo Terezaning zavqlanishi" asari bo'lib, Rimclagi Santa Mariya della Viktoriya ibodatxonasining Kornaro kapellasini bezatib turadi. O'ta zo'r zavq bilan egilib, yoy o'qini ushlab turgan farishtaning his-hayajoni hayotiy berilgan. Tereza libosining burmalari dekorativlik hosil qilgan, oltin nurlar fonida marmarday oppoq farishtaning figurasi devorning rangi bilan qo'shilib ketib, tantanali ansambl hosil qilgan. Mavzu va uning talqin qilinishi Italiya barokkosining xarakterini tasvirlab beradi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. *F.Gendel nechanchi yilda Gannoverga saroy kapelmeysteri lavozimiga ishga keldi?*
2. *XVII asrda Italiya san'atining umumiy xarakteri haqida nima bilasiz?*
3. *Karrachilar 1580- yilda qayerda akademiya ochishadi?*

Adabiyotlar

1. *Abdullaev N. San'at tarixi. T. O'qituvchi, 1987.*
2. *San'atshunoslik masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. T., 1998.*

O'zbekistonda xor san'atining rivojlanishi

O'zbek musiqasining asosi monodik (bir ovozli) bo'lganligi sababli ko'p asrlar davomida ko'p ovozli xor ijrochiligi amalda qo'llanmagan. Xor san'ati respublikada Ikkinchi jahon urushidan keyin rivojlana boshladi. Ko'p ovozli xor dastlab musiqali drama va komediyalarda xalq musiqasini xorga moslab qayta ishlangan holda qo'llanildi. S.Vasilenko va M.Ashrafiyning "Bo'ron", R.Glier va T.Sodiqovlarning "Layli va Majnun" kabi birinchi o'zbek operalari ko'p ovozli o'zbek xor ijrochiligi rivojida katta rol o'ynadi. 1952 yili S.Valenkov rahbarligida tashkil etilgan o'zbek xor kapellasi, shuningdek M.Burhonov, S.Boboyev, Ik.Akbarovlarning birinchi xor asarlari respublikada xor ijrochiligining o'sishiga yo'l ochib berdi.

Ko'p ovozli xor san'atining jadal rivojlanishi 50-60-yillarga to'g'ri keladi. Har yili qo'shiq banramlari, festivallar o'tkazilib, unda ko'p mingli xor kollektivlari qatnashdi. O'zbekistonda milliy professional xor san'ati yuzaga kelishida 1961 yili respublika

televideniya va radiosi qoshida tashkil etilgan B.Umidjonov rahbarligidagi xor kollektivi muhim hissa qo'shdi. Bu xor radio va televideniya orqali xor san'atini targ'ib qilib kelyapti. O'zSSR xalq artisti, dirijyor va kompozitor B.Umidjonov xor jamoasining rahbarigina bo'lib qolmay, uning repertuarini yaratuvchisi hamdir. Uning ijodiy boyligi O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining 50 dan ortiq original va qayta ishlangan qo'shiqlarini o'z ichiga oladi. Aktiv konsert faoliyati va xor musiqasi targ'ibotchiligi uchun 1982 yilda O'zbekiston televideniya va radiosi xori Respublikada xizmat ko'rsatgan jamoa nomiga sazovor bo'ldi.¹⁵

Keyingi yillar davomida respublikamizda bolalar xori keng rivojlanib, o'z ijrochilik mahoratini oshirib kelmoqda. Har yili respublikada o'tkaziladigan an'anaviy "San'at bayrami" ko'rik-konkursi musiqa va umumta'lim maktablarining ko'pdan ko'p xor jamoalarini jalb qilindi. O'zbekistonda yetakchi bolalar xor jamoalaridan biri respublikada xizmat ko'rsatgan artist, bolalar kompozitori Sh.Yormatov rahbarligidagi O'zbekiston televideniya va radiosining "Bulbulcha" milliy bolalar xoridir. Bu xor jamoasi Moskva, shuningdek Yugoslaviya, Finlyandiyada ijrochilik mahoratini muvaffaqiyat bilan namoyish qildi. Musiqa bilim yurtlarida, madaniy-oqartuv texnikumlarida, pedagogika bilim yurtlarida, pedagogika institutlarida, madaniyat instituti va konservatoriyada ko'plab xor jamoalari mavjud. Har yili M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasida shahar xor jamoalarining "Xor musiqasi haftaligi" ko'rigi o'tkazildi. O'zbekiston kompozitorlari xor musiqasining turli janrlarida ijod qilib muvaffaqiyatga erishdilar. A.Hamidov rahbarligidagi O'zbekiston davlat filarmoniyasi qoshidagi xor kapellasi, B. Umidjonov rahbarligidagi O'zbekiston televideniya va radiosi xor jamoasi, M.Burxonov, Ik.Akbarov, S.Boboyev, M.Nasimov, N.Zokirov, M.Bofoyev kabi o'zbek kompozitorlari bilan ijodiy hamkorlikda ish olib borildi. O'zbekiston xor san'ati rivojidagi bu o'zgarishlarga qaramay, respublika xor san'ati arboblari oldida katta vazifalar turibdi.¹⁶

O'zbekistonda xor dirijyorligi ta'limini tashkillashtirish va rivojlantirish

¹⁵ N.Sharafiyeva "Xorshunoslik" O'quv qo'llanma. Toshkent-1987y. 7b.

¹⁶ N.Sharafiyeva "Xorshunoslik" O'quv qo'llanma. Toshkent-1987y. 8b.

O‘zbek va ovropa musiqa madaniyatlarining o‘zaro ta’sir etish jarayoni Turkiston o‘lkasining Rossiyaga qo‘shilgan davridan boshlanadi (XIX asrning 60-70 yillari). “O‘zbekistonda vokal va xor ijrochiligining tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmada ta’kidlanganidek, havaskor musiqiy jamoalarning yuzaga kelishi bu davr uchun xos edi. Ular orasida xarbiy kapelmeyster V.Leysek tomonidan 1898 yilda tashkil etilgan “Lira” nomli xor jamoasi sezilarli rol o‘ynadi. Bu jamoa tinglovchilar orasida nihoyatda ommalashib, havaskor musiqachilikni keng miqyosda rivojlantirishga turtki bo‘ldi. Gimnaziyalar, real o‘quv yurti, O‘qituvchilik seminariyasi, Kadet korpusining yoshlar xor jamoalari ham faol kontsert ishini olib bordilar. Mahalliy aholi hayot tarziga rus va chet el klassiklarning asarlari, musiqachilikning yangi shakllari kirib keldi. Xorlarni professional musiqachilardan V.Leysek, V.Sakovichlar boshqarib, ular O‘zbekiston musiqa madaniyatida sezilarli iz qoldirdilar.¹⁷

Tarixiy manbalarga ko‘ra inqilobgacha bo‘lgan Turkistonda musiqa

va kuylash milliy maktablarda o‘tilmagan, boisi shariat tomonidan ta’qiqlangan edi. Inqilobdan keyin 1917-yilda umumta’limning kiritilishi ko‘p sonli maktablarning ochilishiga olib keldi. Umumta’lim maktablarida xor madaniyatini o‘rgatish jarayoni murakkab kechdi. Xor kuylash o‘zbek xalq ijodiyotining u qadar rivojlanmagan turi edi. San’atning yangi turiga nisbatan muhabbat uyg‘otish juda muhim edi. Kuylash maktab darslari qatoridan joy olgan bo‘lsa-da, ammo uni boshqa fan o‘qituvchilari olib borar edilar. Bolalar havaskorlik jamoalari rivojlana boshladi. 1918 yildayoq Toshkentning bolalar maydonchalarida mashhur musiqachilar N.Mironov, A.Derfelden, S.Kuzmenkolar xor mashg‘ulotlarini olib bordilar. Maktab-teatr jamoalari keng tarqaldi. Rahbarlar orasida professional xormeysterlardan V.Sakovich va S.Vasilevlar bor edi. 1919-yilda o‘zbek maktablari bazasida 60ta o‘g‘il boladan iborat bunday jamoa ilk bor tashkil etildi. Uni bolalar estetik tarbiyasining faol targ‘ibotchisi Ali Ardobus Ibrohimov tuzgan edi. Bu jamoada uchta bo‘lim bor edi: badiiy so‘z, xor va raqs bo‘limlari. Keyinchalik u mana shunday jamoalardan o‘n ikkitasini tashkil etdi. Ammo maktablarda kuylashni

¹⁷ B.Sh.Shamahmudova “Xor fanlarini o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. Tashkent-2012y. 7b.

o‘rgatish hamon muammoligicha qolib, kasbiy savodga ega o‘qituvchilar yo‘q edi.¹⁸

O‘sha vaqtda milliy xormeysterlar tayyorlash masalasi ko‘tarilmagan va bu ixtisoslikka na Toshkent konservatoriyasida, na markaziy oliygohlar studiyalarida saboq berilgan. Shu bois xor san‘ati doirasini kengaytirish, uning ommalashuviga, havaskorlikdan kasbiy darajagacha rivojlantirishning iloji yo‘q edi. Ko‘p ovozli xor madaniyatini o‘zlashtirish bilan (kapellaning 1936 yilda yaratilishi va 1937-yilgacha davom etishi, o‘zbek musiqali dramasi va operalarining sahnalashtirilishi, ommaviy qo‘shiqlarning paydo bo‘lishi) xor jamoalarining malakali rahbarlari va xor xonanda artistlarini tayyorlash dolzarb bo‘lib qoldi.¹⁹

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi musiqiy teatr studiyasi xori²⁰

O‘zbekiston davlat konservatoriyasining opera studiyasi 1964 yilda tashkil etilgan. Uning asosiy tashabbuskorlaridan biri O‘zbekiston xalq artisti, professor M.Ashrafiy va xorning birinchi rahbari O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi R.Xublarov bo‘lgan. Xor bilan ishlaganlar orasida D.Qurbonova, S.Shodmonov, L.Nisenbaum, V.Babayants, N.Qoziev, M.Polonskiy, B.Bo‘riev, A.Hamidov, D.Jdanov, L.Petlinalar bor.

Opera studiyasining xori simfonik dirijyorlar, xormeysterlar, akademik xonandalar va kompozitorlarning Davlat attestatsiyalariga tayyorlanishlarida ishtirok etadi, shuningdek, turli bayramona kontsertlar, bolalar uchun abonementli kontsertlarda va xor festivallarida chiqishlar qiladi. Xor o‘zining faoliyati davomida ko‘plab opera spektakllarida qatnashdi: bulardan P.Chaykovskiyning “Yevgeniy Onegin” va “Iolanta”, N.Rimskiy-Korsakovning “Saltanat kelini”, R.Leonkovalloning “Masxarabozlar”, J.Verdining “Traviata”, S.Yudakovning “Maysaraning ishi” va b. Opera studiyasining jamoasi O‘zbekiston kompozitorlari qalamiga mansub ko‘plab asarlarning birinchi ijrochisi bo‘ldi: bular M.Burhonovning “Alisher Navoiyga qasida” va “Epitafiya”, S.Yudakovning “Muborakbod”, “O‘zbekiston”, “Mening Vatanim”, M.Ashrafiyning “Rustam haqida doston”,

¹⁸ B.Sh.Shamahmudova “Xor fanlarini o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. Tashkent-2012y. 8b.

¹⁹ B.Sh.Shamahmudova “Xor fanlarini o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. Tashkent-2012y. 9b.

²⁰ Sevara Kadirova “Xorshunoslikning boshlang‘ich kursi” O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2015y. 5b.

F.Yanov-Yanovskiyning “In Memoriam” va “Muqaddas Markdan” (O‘zbekiston davlat Xor kapellasi bilan hamkorlikdagi ijro), K.Azimovning “Sen olam bezagisan, qadim Buxoro!” kabi asarlaridir.

Opera studiyasi xorining faoliyatida o‘z kontsertlari muhim o‘rin egallaydi. So‘nggi yillar davomida mavzu jihatdan qiziqarli va rang-barang bo‘lgan loyihalar amalga oshirildi: bular “Musorgskiy operalarida drama” (“Boris Godunov” va “Xovanshina” operalaridan sahnalar), “Markaziy Osiyo ohanglari”, “Blokni xotirlab”, “Garsia Lorca xotirasi”, “Anna Axmatovaning ayollik qalbi”, “Beatles” guruhiga bag‘ishlangan “All the need is love” nomli kontsert, “R.Shumanning 200 yilligiga”, “Svetayevaga Requiem”, har yili o‘tkaziladigan “Xotira va qadrlash kuni”ga bag‘ishlangan kontsertlar. Jamoa A.Nazarov, M.Burxonov, M.Bafoyevlarning, shuningdök, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi Feruza Abdurahimova rahbarligidagi “Sug‘diyona” milliy cholg‘ular kamer orkestrining yubiley kontsertlarida ishtirok etdi.

Havaskorlik xor san‘atining rivojlanishi

Respublikamizda musiqa va xor 20-yillardan boshlab rivojlana bordi. To‘garaklar tuzila boshlandi. 1930-yillarda bastakorlar Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromovlar 1-2 ovozli qo‘shiqlarni yaratdilar. 1934-yilda birinchi musiqa badiiy olimpiadasi o‘tkazildi. 1000 kishilik xor qatnashdi. 1937-yilda Moskva O‘zbekiston dekadasida xor jamoalari qatnashdi.

Urush davrida havaskorlik xorlari jangchilar uchun konsertlar uyushtirar edilar. Urushdan keyin ikkinchi respublika olimpiadasida 20000 kishi qatnashdi.(1143 jamoalar) 1948-yil III olimpiadada 25000 kishi ishtirok etdi va ko‘p ovozlilik rivojlanib bordi. 1950-yillarda konservatoriya , musiqa bilim yurti o‘quvchilari havaskorlik xorlariga amaliy yordam bera boshladilar. 1960-1970-yillarda havaskorlik jamoalarni son va sifati oshdi. Bolalar xor ijrochiligining rivojlanishiga konservatoriya dotsentlari Kenzer, Valenkov, Vasil‘eva, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Sh.Yormatovlarning xizmatlari katta. Boychechak, Bulbulcha Respublikamizda yuzlab ashula va raqs ansambllari mavjud bolib, ularning qoshida xor-vokal guruhi tuzilgan.

Masalan; Anor, Gulrux, Chust taronalari, Shirin, Rohat, Shalola. Xor tarkibida 15-20 kishi mavjud. Ular lapar, yalla, yor-yor qo‘shiqlarini qayta ishlab kelayotgan Sh.Ramazonov, T.Sodiqov,

M.Ashrafiy, S.Yudakov, M.Leviyev, M.Burxonov, S.Boboyev, Nazarov, B.Umidjonov bastakor va kompazitorlardir.

Professional xor san'atining rivojlanishi

O'zbekistonda professional xor san'ati eng kech rivojlana boshlagan san'at turlaridan biridir. Chunki zarur shart-sharoitlar yo'q edi. Bu masalalarni amalga oshirishi uchun musiqa o'quv yurtlari ochish malakali xormeysterlar bastakorlar tayyorlash kerak edi. Qator rus musiqa san'ati arboblari V.Uspenskiy, Y.Romanovskaya, N.Mironov, R.Glyer, S.Vaselenko, A.Kozlovskiy va o'zbek musiqachilarning hissasi katta.

